



UDK: 364.12.2(575.1)

**Akbarjon ISAYEV,**  
Andijon davlat universiteti professori v.b., DSc  
E-mail: Akbar-78@mail.ru.  
**Xasanboy YUSUPOV,**  
Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
E-mail: xasanboyusupov16@gmail.com

TDSHU dotsenti, g.f.n S.Tashtayeva taqrizi asosida

## NAMANGAN VILOYATI SHAHARLARINING SHAKLLANISHI VA IXTISOSLASHUVI

Аннотация

Mazkur maqolada Namangan viloyati shaharlarining shakllanishi, tarixiy tarkib topishi va ixtisoslashuvi yoritilgan. Maqolada turli jadvallar asosida viloyat shaharlarining tiplari, tarkib topishi va ixtisoslashuvi yoritilgan taklif va tavsiyalar asosida xuloslangan.

**Kalit soʻzlar:** Namangan viloyati, urbanizatsiya, shaharlar tipi, aholi, ixtisoslashuv, shaharlarni shakllanishi.

## FORMATION AND SPECIALIZATION OF CITIES OF NAMANGAN REGION

Annotation

This article discusses the formation, historical composition and specialization of cities in Namangan region. The article is summarized based on various tables, types of cities in the region, composition and specialization, and suggestions and recommendations.

**Keywords:** Namangan region, urbanization, types of cities, population, specialization, formation of cities.

## ФОРМИРОВАНИЕ И СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ ГОРОДОВ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В статье рассматриваются формирование, исторический состав и специализация городов Наманганской области. Статья обобщается на основе различных таблиц, типов городов области, их состава и специализации, а также предложений и рекомендаций.

**Ключевые слова:** Наманганская область, урбанизация, типы городов, население, специализация, формирование городов.

**Kirish.** Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishi butun mamlakat miqiyosida shaharlashuv jarayonlari jadallik bilan ketmoqda. O'zbekistonda ham urbanizatsiya va shaharlarni rivojlantirishga oid islohotlar keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi PF 5623-sonli "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingan. Bugungi kunda urbanizatsiya butun dunyo miqiyosida iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning ajralmas qismiga aylangan [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, viloyatdagi urbanizatsion jarayonlar tarixiy, demografik, iqtisodiy va ekologik jihatlari bilan bir qatorda, ijtimoiy-geografik omillari nuqtai nazaridan ham keng o'rganilgan. [2] Avvalo, O'zbekiston geografiya fanining yetuk vakillaridan biri bo'lgan professor A. Rasulov tomonidan urbanizatsiya jarayonlarining umumiy nazariy asoslari ishlab chiqilgan[4]. Uning "O'zbekiston urbanizatsiyasi geografiyasi" (2005) nomli asarida urbanizatsiyaning makoniy xususiyatlari, O'zbekiston Respublikasi urbanizatsiyasida Namangan viloyati o'ziga xos o'rinni egallaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolani o'rganishda geografik taqqoslash, tarixiy, statistik, kartografik, tizim-tarkib, hududiy tahlil, matematik kabi usullar qo'llanildi. Shu bilan bir qatorda, omillarni qiyosiy tahlil qilish usuli, iqtisodiy qiyosiy tahlil usullari ham qo'llanildi.

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi kunda Namangan viloyati urbanizatsiya ko'rsatkichi bo'yicha mamlakatda eng oldingi o'rinlarda turadi. Aholisining 64% dan ortig'i shaharlarda istiqomat qiladi. Viloyat xo'jaligining tarkibi, ixtisoslashuvi, shaharlar to'ri va tizimida o'z aksini namoyyon etmoqda [5].

2024-yil ma'lumotlariga ko'ra Namangan viloyati O'zbekistonda eng yuqori urbanizatsiyalashgan hudud bo'lganini ko'rish mumkin (urbanizatsiya darajasi 64 foizdan ortmoqda). Viloyatning urbanistik tarkibida bitta katta shahar - Namangan bor, xolos. Viloyat markazida 2025-yil boshida 696 ming aholi yashmoqda. Viloyatning "ikkinchi" shahri Chustda 71,6 ming atrofida, Chortoqda 55 ming, Kosonsoyda 52,5 ming aholi istiqomat qiladi. "Yarim o'rta" shaharlar guruhi Pop, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Haqilobod 20,0-50,0 ming kishi atrofida. Qolgan shahar va shaharchalarning aholisi kichik shaharlar sinfiga mansub. Ko'rinish turibdiki, Namangan viloyati shaharlar guruhida kichik va o'rta shaharlar ko'proq rivojlangan.

Viloyat markazi Namanganning qulay iqtisodiy geografik o'rni, Sirdaryo sohilida joylashganligi, uning tez rivojlanishiga, viloyatning eng yirik markazlaridan biriga aylanishiga olib keldi. 1910-yilda Namangan rasman shahar maqomini oldi va mintaqaning yengil sanoat markazi sifatida rivojlanib bordi. Uning atrofida Chust, Oqtosh, Chortoq, Uchqo'rg'on kabi yo'ldosh shahar va qishloqlar shakllana boshladi[8]. Chust hududi miloddan avvalgi davrlardayoq odamlar yashagan joylardan biri hisoblanadi. Chust shahri rasmiy ravishda 1960-yilda shahar maqomini olgan. Chortoq shahri rasmiy ravishda 1976-yilda shaharcha (shahar tipidagi posyolka) maqomini olgan. 1996-yil Chortoqga shahar maqomi berilgan. Uchqo'rg'on toponimi

o'zbek tilida "uch qal'a" yoki "uchta qo'rg'on" deb tarjima qilinadi. Uchqo'rg'on tumanga qarashli shahar bo'lib 1969-yilda shahar maqomini olgan. Pop bir joyda shahar sifatida rivojlangan va arxeologik kuzatuvlar uning deyarli ikki ming yillik tarixidan dalolat beradi. Bu yerda tadqiqotchilar 1-asrlardan tortib 7 - 8-asrlarga oid materiallarni topganlar. X - XII-asrlarda shahar chegaralari hozirgi Popning janubiy chekkalariga yetgan, u hunarmandlar shahriga aylangan[9]. Haqqulobod shahri 1926-yilda tashkil etilgan Norin tumanining markazi sifatida rivojlanishni boshlagan. Shahar 1974-yilda shahar maqomini olgan. Shahar hududida qadim zamonlardan buyon odamlar yashagan va bu yerda bir qancha tarixiy yodgorliklar mavjud[10].

Namangan shahri aholisi respublikaning boshqa viloyat markazlariga qaraganda tezlik bilan ortib bormoqda. Shaharning bunday "tezligi" tabiiy ko'payish va qisman shahar hududining kengayishi hisobiga ro'y bermoqda. Umuman olganda mintaqa shaharlari aholisining o'sishida eng avvalo hududdagi tug'ilish va tabiiy ko'payish jarayonlari muhim rol o'ynaydi.

1-jadval

Namangan viloyati shaharlarining tiplari

| T/r | Shahar tipi           | Shaharlar                                                                         |
|-----|-----------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|
| 1   | Eng yirik shaharlar   | Namangan                                                                          |
| 2   | Yirik shaharlar       | -                                                                                 |
| 3   | Kata shaharlar        | -                                                                                 |
| 4   | O'rta shaharlar       | Chust, Chortoq, Kosonsoy                                                          |
| 5   | Yarim o'rta shaharlar | Pop, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Haqqulobod                                       |
| 6   | Kichik shaharlar      | -                                                                                 |
| 7   | Shaharchalar          | Uychi, Yangiqo'rg'on, Toshbuloq, Jamosho'y, O'nxayot, Olmos, Qo'g'ay va boshqalar |

Ushbu jadval muallif tomonida statistik ma'lumotlar asosida tuzildi.

Viloyatning har bir shaharlari o'ziga hos ixtisoslashuv darajasiga egaligi bilan ham ajralib turadi. Viloyat shaharlari ixtisoslashuvi hududdagi aholining va urf odatlari bilan ham chambarchast bog'liq hisoblanadi.

Hududiy ixtisoslashuvga asoslangan rivojlanishi har bir shahar o'z tabiiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlariga mos tarmoqlar asosida rivojlanadi va ixtisoslashadi.

Namangan viloyatining shaharlarini ixtisoslashuvi bo'yicha tahlil qilinsa, viloyat markazi bo'lgan Namangan shahari juda katta imkoniyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Namangan shahri bugungi kunda sanoati tez rivojlanayotgan shaharlardan hisoblanadi. Namangan shaharida asosan sanoat, xizmat ko'rsatish yetakchilik qiladi viloyatning asosiy ta'lim markazi deb olsa ham bo'ladi. Viloyatning asosiy shaharlaridan biri bu Chus shahari bo'lib asosiy ixtisosligi hunarmandchilik va ananaviy mahsulotlar ishlab chiqarishdan iborat.

Pichoqbozlik, do'ppichilik va kulolchilik ananaviy ishlab chiqarish sohalari keng rivojlangan, qishloq xo'jaligi, dexqonchilik sohalari ham o'ziga hos. 2- jadval tahlili shuni ko'rsatadiki Pop transport-logistikasi va meva sabzavotchilik sohalari bilan ajralib turadi. Qishloq xo'jaligi viloyatning barcha shaharlariga mahsulotlari kirib kelganini ko'rish mumkin[6].

2-jadval

Namangan viloyati shaharlarining ixtisoslashuvi

| T/r | Shahar nomi   | Asosiy ixtisoslashuvi                    | Tarmoq / faoliyat yo'nalishlari                             |
|-----|---------------|------------------------------------------|-------------------------------------------------------------|
| 1   | Namangan      | Sanoat, xizmatlar sohasi, ta'lim         | To'qimachilik, oziq-ovqat, savdo markazlari, universitetlar |
| 2   | Chust         | Hunarmandchilik, an'anaviy mahsulotlar   | Pichoqchilik, do'ppichilik, kulolchilik                     |
| 3   | Pop           | Transport-logistika, meva sabzavotchilik | Temiryo'l uzeli, qishloq xo'jaligi, sovutkich omborlari     |
| 4   | To'raqo'rg'on | Energetika, qurilish sanoati             | Elektr stansiyasi (IES), g'isht va beton ishlab chiqarish   |
| 5   | Haqqulobod    | Qishloq xo'jaligi, bog'dorchilik         | Uzum, gilos, meva-sabzavot eksporti                         |
| 6   | Uchqo'rg'on   | Yengil sanoat, kichik biznes             | Tikuvchilik, kichik korxonalar, xizmatlar                   |
| 7   | Chortoq       | Dehqonchilik, g'allachilik               | G'alla, paxta, sabzavot yetishtirish, rekreatsiya           |
| 8   | Kosonsoy      | An'anaviy mahsulotlar                    | To'qimachilik, oziq-ovqat                                   |

Ushbu jadval muallif tomonidan statistik ma'lumotlar asosida tayyorlandi

Namangan viloyatidagi shaharlarda ixtisoslashuv hududlar resurslaridan oqilona foydalanish orqali shakllangan deb hisoblash mumkin. Bunda viloyatni sanoat, qishloq xo'jaligi, energetika, xizmatlar va hunarmandchilik sohalari viloyatning hududlarini asosiy ixtisoslashuvi sifatida baholash mumkin.

Viloyatda shaharlar bilan bir qatorda, shaharchalar ham iqtisodiy hayotda muhim o'rin tutadi. Namangan viloyati urbanizatsiyasining rivojlanishi va ixtisoslashuvida viloyat shaharchalarining ham o'rni katta. Viloyatda shaharchalar salmog'i ham yuqoriligi bilan respublikada oldingi o'rinlarda turadi, Shaharchalarning xam o'ziga xos ixtisoslashuvilga ega ekanligi bilan bir biridan ajralib turadi.

Ularning har biri ma'lum sohalarga ixtisoslashgan bo'lib, bu iqtisodiy hududiy o'ziga hoslik jihatlari ta'minlaydi. Ushbu maqoladada Namangan viloyatidagi asosiy va ayrim shaharchalarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, faoliyat yo'nalishlari va rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shaharchalar va ularning rivojlanish imkoniyatlari viloyatda katta ahamiyatga ega ekanligi bilan ham alohida ajralib turadi.

3-jadval

Namangan viloyati ayrim shaharchalarning ixtisoslashuvi

| T/r | Shaharcha nomi | Joylashgan tuman     | Asosiy ixtisoslashuvi                         | Ixtisoslashuv imkoniyatlari                              |
|-----|----------------|----------------------|-----------------------------------------------|----------------------------------------------------------|
| 1   | Toshbuloq      | Namangan tumani      | Qurilish sanoati, yengil sanoati              | G'isht, beton ishlab chiqarish, yuk tashish xizmati      |
| 2   | Olmos          | Chust tumani         | Oziq ovqat sanoati, yengil sanoat, gototurizm | Parranda fermalari, sut mahsulotlari ishlab chiqarish    |
| 3   | Uychi          | Uychi tumani         | Yengil sanoat, xizmat ko'rsatish              | Paxta-to'qimachilik, don mahsulotlari                    |
| 4   | Chodak         | Pop tumani           | Turizm, konchilik,                            | Marjon, ohaktosh qazib olish, tabiiy resurslar, qurilish |
| 5   | Ququmboy       | Kosonsoy tumani      | Hunarmandchilik, yengil sanoat                | Qo'l mehnatiga asoslangan ustaxonalar, mevalchilik       |
| 6   | Cho'ja         | Norin tumani         | Hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish            | Sabzavot yetishtirish, issiqxonalar                      |
| 7   | G'ova          | Chust tumani         | Turizm, yengil sanoat                         | Uzum plantatsiyalari, gilos, shaftoli bog'lari           |
| 8   | Nanay          | Yangiqo'rg'on tumani | Turizm                                        | Paxta-to'qimachilik, don mahsulotlari                    |
| 9   | Qo'g'ay        | Uchqo'rg'on tumani   | Qurilish, oziq ovqat sanoati                  | Paxta-to'qimachilik, don mahsulotlari                    |
| 10  | Koroskon       | Chortoq tumani       | Qurilish, xizmat ko'rsatish                   | Qo'l mehnatiga asoslangan ustaxonalar, issiqxonachilik   |

Ushbu jadval muallif tomonidan tuzildi

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'plab shaharchalar o'z geografik joylashuvi, iqlim sharoiti va resurslarga asoslanib ixtisoslashgan. Masalan, Chodak tabiiy resurslarga, G'ova esa tog' yonbag'ridagi tokchilikka ixtisoslashgan. Bu hududiy ixtisoslashuv sabablari deb hisoblansa, iqtisodiy barqarorlikni ta'minash bo'yicha shaharchalarning ixtisoslashuvi mahalliy aholining bandligi, daromadi va ichki bozordagi mahsulotlar xilma-xilligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayrim shaharchalarda esa (masalan, Toshbuloq, Uychi shaharchasi) kichik sanoat zonalarini barpo etilgan bo'lib, kichik biznes rivojlanmoqda. Gulbog',

Olmos, Navbahor kabi shaharchalarda issiqxonalar, chorvachilik majmualari agrosanoat tarmog'ining asosiy qismini tashkil qilmoqda.

Hududlararo raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun har bir shahar o'zining mavjud salohiyatiga mos ixtisoslashuvi asosida rivojlantirilishi zarur. Har bir hududning geografik o'rni va aholi sonidan kelib chiqib ixtisoslashuv darajasini yangi yo'nalishlarini belgilash juda ham muhim hisoblanadi. Namangan viloyati hududi turli darajada ixtisoslashuvga ega bo'lgan viloyat hisoblanadi va ushbu imkoniyatlardan kengroq foydalanish muhimdir.

Xulosa va takliflar. Har bir shahar va shaharchaning mavjud salohiyatidan kelib chiqib, ularning ixtisoslashgan tarmoqlarini chuqurroq rivojlantirish (masalan, Chustda hunarmandchilik brendini yaratish, Chodakda ekologik turizm zonasi). Kichik shahar va shaharchalarda sanoat zonalarini rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun subsidiya va kreditlar ajratish. Viloyat ichida transport va logistika infratuzilmasini yaxshilab, shaharlarning o'zaro iqtisodiy aloqalarini mustahkamlash. Katta shaharga migratsiyani sekinlashtirish maqsadida kichik shahar va shaharchalarda yashash va ishlash sharoitlarini yaxshilash. Ixtisoslashuv asosida har bir shahar va shaharchaning o'sish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish. Sanoat rivojida ekologik talablar va yashil texnologiyalarni joriy etish.

Namangan viloyatida urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lib, shaharlarda istiqomat qiluvchi aholining ulushi 64%dan ortiq. Bu ko'rsatkich viloyatni O'zbekistonning eng urbanizatsiyalashgan hududlaridan biriga aylantiradi. Namangan shahri viloyatning yagona yirik shahri bo'lib, sanoat, xizmat ko'rsatish va ta'lim sohalarida yetakchi hisoblanadi. O'rta va kichik shaharlar tarmog'i keng rivojlangan, ularning har biri muayyan sohalariga ixtisoslashgan, masalan: Chust - hunarmandchilik, Pop - logistika, To'raqo'rg'on - energetika. Shaharchalar iqtisodiy hayotda muhim rol o'ynaydi, ularning ko'pchiligi yengil sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, turizm va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan. Hududiy ixtisoslashuv geografik joylashuv, tabiiy resurslar, aholi salohiyatiga tayangan holda shakllangan. Bu holat mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy xilma-xillikka zamin yaratmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5623-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-iyundagi "Respublika bo'ysinuvidagi shaharlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5738-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi "Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish to'g'risida"gi PF-52-son Farmoni.
4. Ahmedov E. A. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. – T.: Abu Ali Ibn Sino, 2002. – 224.
5. Davronov, U. (2019). Namangan viloyatidagi urbanizatsiya jarayonlari. Namangan: Namangan Davlat Universiteti nashriyoti.
6. Inomov I. O'zbekistonning yangi shaharlari, T,84-bet
7. Isayev A. Abduraxmonova H. Farg'ona vodiysi shahar aglomeratsiyalari rivojlanishiga transport omilining ta'siri// Journal of Geography and Natural Resources.<https://topjournals.uz/index.php/jgnr> <https://doi.org/10.37547/supsci-jgnr-02-02-02>.
8. Isayev A.A. CHARACTERISTICS OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF ROADS IN UZBEKISTAN // Экономика и социум. 2021. №10 (89). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/characteristics-of-formation-and-development-of-roads-in-uzbekistan> (дата обращения: 16.10.2023).
9. Низамиев А.Г., Момошева Г.А., Осмоналиева А.А., Айтыкулова Б.М., Исаев А.А. Оценка особенностей экономико-географического положения малых городов южного региона Кыргызстана //География и природные ресурсы, № 1, 2022. –С. 158-163. DOI: 10.15372/GIPR20220117.
10. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K, Egamberdieva M.M. Shaharlar geografiyasi. O'quv qo'llanma.- T., "Vneshinvestprom", 2019.